

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI
O'RGANISHDA O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING AHAMIYATI**

Ergashova Mehriniso Husniddin qizi

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-bosqich
talabasi*

Annotatsiya: *ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda mustaqil so'z turkumlarini o'rganishda xizmat qiluvchi didaktik o'yinlar, smart texnologiya va zamonaviy metodlar qatorida turuvchi o'zbek xalq maqollarining ahamiyati va roli to'g'risida fikr va qarashlar o'z ifodasini topgan. Ushbu maqola so'z turkumlarini o'quvchilarga o'rgatish jarayonida maqollarni qo'llash texnikasi to'g'risida amaliy va nazariylar qarashlarni birga olib borilganligi bilan dolzarbdir.*

Kalit so'zlar: *maqol, so'z, turkum, dastur, qadriyat, texnika, smart texnologiya, tajriba.*

KIRISH

Xorij tajribalari asosida jadallik bilan rivojlanayotgan ta'lim tizimi hozirgi kunda kreativ g'oyalar asosida yaratilgan usul, vosita va texnologiyalarga chambarchas bog'liq hisoblanadi. Chunki "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ham o'quvchi yoshlarni ta'lim sohasini tubdan isloh qilgan holda rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuqori darajadagi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi salohiyatli, yetuk kadr qilib tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Salohiyatli, har tomonlama yetuk kadrlar hozirgi bozor iqtisodiyotining muhim talablaridan biridir.

Kichik yoshdagi o'quvchi qay tarzda kamolga yetishi maktabga qadam qo'ygan ilk davrlariga bog'liq. Boshlang'ich sinflarda o'quvchiga beriladigan bilim, ko'nilma va malaka toki ulg'ayib kamolga yetguniga qadar hosil qilgan bilimlarining eng asosiy qismini tashkil qilishi barchamizga sir emas. Zero, "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir". Ushbu muhim tushunchani hisobga olgan holda maktabda, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda barcha fanlar qatorida ona tili va o'qitish savodxonligi darsliklariga muhim e'tibor qaratildi. Darslik haqiqatni bilish qonuniyatlariga, hozirgi zamon didaktikasi vazifalariga mos kelgan holda, rivojlangan xorij mamlakatlari davlat dasturi bilan integratsiya qilgan holda, kompetensiya va zamonaviy standartlar asosida yangidan ishlab chiqildi. Darsliklarda asosiy e'tibor bolaning ongini, fikrlash qobiliyati hamda tasavvur doirasini o'stiruvchi amaliy mashqlarga qaratilgan bo'lib, hozirda har tomonlama rivojlangan yetuk o'quvchilarni bilim olishiga xizmat qilmoqda.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vositalar bilan bir qatorda o'zbek tilining asl xazinasini hisoblangan, ota-bobolarimizdan bizga so'nmas meros bo'lib qolgan maqollar ham alohida ahamiyatga egadir. Maqollar hozirgi kunda ham ta'limiy ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi, o'quvchilarga bilim berishdagi muhim vositalardan biri sanaladi. Chunki boshlang'ich ta'lim tizimining bosh va asosiy maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berish, ularni jahon andozalariga mos ravishda o'qitish, zamonaviy bilim va malakaga ega bo'lgan, mustaqil izlanuvchan, ijodkor yoshlarni kamol toptirishga qaratilgan. Jumladan, boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darsliklari ta'lim tizimida kichik yoshdagi o'quvchilarning ijodkorligi, mustaqil izlanuvchanligini oshirish, nutqini va so'z boyligini o'stirish, tafakkur doirasini shakllantirish bilan birga uni kengaytirish kabi vazifalarni o'z zimmasiga olgan. Mazkur vazifani amalga oshirishda esa maqollar muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimizning isboti tariqasida ushbu jumlaning keltirib o'tishimiz o'rindir: "Maqol-xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi, ko'p asrlik tajribalari majmui, turmushdagi turli voqea-hodisalarga munosabtning ifodasidir. Maqol kundalik hayotda, kishilarning bir-birlari bilan muomalada bo'lish jarayonida tug'iladi. Xalq maqoli xalqning mulkidir. Maqol ishlatmagan birorta xalq, maqol ijod qilmagan birorta til yo'q".¹

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham shunday fikrlarni keltirib o'tganlar: "Agar mendan sizni nima qiynaydi? deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman". Maqollar yoshlarga ham ta'lim, ham tarbiyasi borasida ta'sir qilib kelayotgan vositalardan biridir. Boshlang'ich sinf 1-4 bosqichlarni o'z ichiga olib, milliy dasturda ta'kidlanganidek, bu bosqichda ta'limning yangicha tizimini va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar muhim hisoblanadi:

1. O'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;
2. Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash va hokazolarni nazarda tutadi.²

O'quvchida mustahkam, ongli tushunchalar asosida qurilgan bilimlar tizimini shakllantirishda amaliy mashqlar, interfaol metodlar yaqindan yordam beradi. Konfutsiy ta'kidlab o'tganidek, "Men nimaniki eshitsam, unutamam, nimaniki ko'rsam eslab qolaman."³

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ushbu tamoyilga asoslangan holda dars tashkil qilish yuqori samara beradi. Xususan, davlatimiz rahbari 2022-yil 20-dekabrda ta'lim siyosatiga bag'ishlangan yig'ilishda ona tilimizga bo'lgan e'tibor

¹ G'. Salomov fikrlaridan

² O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi".// Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent: "Sharq", 1997. 39-bet.

³ "Liderlar kitobi" Otabek Hasanov. Toshkent-2020, 117-bet.

haqida shunday dedilar: "Milliy o'zligimizning timsoli bo'lgan, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yana-da kuchaytirildi. Albatta, oilamizda ham chet tilini bilish, albatta, kerak, bu ham hozir zamon talabi. Lekin ona tilini bilishga majbur qilishimiz kerak. Majbur."-ta'kidladilar, muhtaram prezident. ⁴

Ona tilimizning asosiy xususiyatlarini kichik yoshli boshlang'ich sinf o'quvchilariga xalqimizning azaliy qadriyatlari singgan "otalar so'zi" bilan o'rgatishning samarali jihatlari quyida ochib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqol xalqning hayot tajribasidan olgan xulosalarini, falsafiy mulohazalarini ifodalovchi xalq og'zaki janri hisoblanadi. Maqollar o'zbek tilida quyidagi ikki ma'noda qo'llaniladi:

1. Lug'aviy ma'noda "so'z";
2. Istilohiy ma'noda esa foklarda keng tarqalgan janrni ifodalaydi. ⁵

Maqollar muayyan aniq shaklga ega bo'ladi. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollarda quyidagilar aks etadi:

1. Avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari;
2. Jamiyatga munosabat;
3. Tarix;
4. Ruhiy holat;
5. Etik va estetik tuyg'ular;
6. Ijobiy fazilatlar kabilar mujassamlashgan bo'ladi.

So'z turkumlari muayyan bir ilm hisoblanib, u so'z turkumlari ustida ishlash usullarining uch jihatiga ya'ni, grammatik, morfologik va sintaktik belgilariga ko'ra bir-biridan farqli guruhlarga ajratiladi. So'zlar leksik va grammatik jihatidan turkumlarga ajratiladi. Ushbu jihatdan so'z turkumlarini guruhlarga ajratishda quyidagi uch belgiga asoslaniladi:

1. So'zlarning leksik ma'nosi. Bunda so'z qanday ma'no ifodalanishi(predmet, belgi, harakat yoki holat) hisobga olinadi.

2. So'zlarning morfologik xususiyatiga binoan farqlanishi, bunda so'zlar bir-biridan turli shakl tizimi kabi mohiyatlariga asoslanib, bir-biridan farqlanadi va guruhlarga ajratiladi.

3. So'zlarning sintaktik belgisiga ko'ra guruhlarga ajralishida gap tarkibida ma'lum bir vazifani bajarishi hisobga olinadi.

So'z turkumlarini o'rganish jarayoni izchil, tizimli jarayon bo'lib, so'z turkumlari ustida ishlash o'quvchilarning muayyan guruhdagi so'zlarning umumlashtirilgan ma'nolarini, kishilarning aloqa vositasi sifatidagi rolini tushunib

⁴ Gazeta.uz internet sayti.

⁵ Abiturtest.uz-internet sayti

olishlariga qaratilishi zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari to'rt bosqich doirasida quyidagi so'z turkumlari va ularni o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishadilar:

1. Ot so'z turkumi(uning ma'nosi, so'roqlari, birlik va ko'plik shaklda qo'llanilishi, egalik va kelishik kategoriyalarini qabul qilishi, turlanishi va atoqli, turdosh otlar haqida tushunchaga ega bo'ladilar, ammo bu jarayonda atoqli va turdosh atamaları o'quvchiga aytilmaydi, oddiy qilib shaxs, narsa, joy otlari va nomlari deyish asosida bir-biridan farqi o'rgatiladi);

2. Sifat so'z turkumi;

3. Son so'z turkumi;

Olmosh so'z turkumi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan so'z turkumlari haqida o'quvchida umumiy tushuncha hosil qilish jarayonidan so'ng ularga har bir so'z turkumi alohida-alohida leksik-grammatik guruh sifatida o'rgatiladi. Ushbu so'z turkumlari haqida boshlang'ich tushuncha berishning ilk bosqichidayoq o'quvchiga so'z turkumining mohiyatini ongli anglashda yordam beruvchi usul taqqoslash usuli sanaladi. Bu usul o'quvchilarga shakllantirilgan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniq shaklda ajratishga imkon beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari dastur talablari asosida o'rganilishi kerak bo'lgan so'z turkumlari (ya'ni ot, sifat, son, olmosh, fe'l)ning barcha xususiyat va mohiyatlari bilan to'liq tanishtirilmaydilar. So'z turkumlarini o'rganish jarayoni biroz murakkab jarayon bo'lganligi bois Respublika Ta'lim Markazi tomonidan ishlab chiqilgan dastur o'quvchi va o'qituvchilar oldiga quyidagi talablarni qo'yadi:

1. O'quvchi so'zning qanday ma'no anglatishini, ya'ni nimani ifodalab kelishini(miqdor yoki predmet ma'nosi) bilishlari;

2. So'z turkumlari qanday so'roqlar qabul qilishi;

3. So'z turkumlarining o'ziga xos kategoriyalari va ushbu kategoriyalar asosida o'zgarish yoki o'zgarmasligi(masalan, ot so'z turkumi kelishik kategoriyasini qabul qilganda turlanadi);

4. So'z turkumlari gap tarkibida qanday gap bo'lagi vazifasini bajarib kelishlari kabi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishlari talab qilinadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan so'z turkumlariga oid bilimlarini egallash bosqichidan so'ng boshlang'ich sinf o'quvchilari har bir mustaqil so'z turkumini taqqoslash orqali ongli ravishda bir-biridan ajrata boshlaydilar. Ular qanday ma'lumotlarni o'rganlariga qarab, har bir so'z turkumining grammatik belgilari haqidagi bilimlari asta-sekin kengayib boradi. So'z turkumlarini o'rganish tizimli va izchil jarayon bo'lgani sababli o'quvchilarga beriladigan bilimlar sekinlik bilan chuqurlashib boradi. Dasturga ko'ra, boshlang'ich sinfda so'zlar dastlab javob bo'ladigan morfologik so'roqlariga qarab guruhlanadi. Birinchi sinfda o'quvchida so'z turkumlari haqida umumiy ma'lumot shakllantirilsa, ikkinchi sinfdan boshlab ma'lumotlar chuqurlashib boradi. Boshlang'ich sinfning uchinchi bosqichida "So'z

turkumi" tushunchasi shakllantiriladi. O'quvchilar har bir so'z turkumining o'ziga xos xususiyat va mohiyatlarini anglay boshlaydilar.

Ta'lim dasturiga ko'ra, boshlang'ich sinflarning so'z turkumlarini o'rganish jarayoni boshqa sinflarda tubdan farq qiladi, ya'ni o'qituvchi o'quvchilarni so'z turkumlarini ikki guruhga (mustaqil va yordamchi) bo'linishi kabi ma'lumotlar bilan to'liq tanishtirmaydi, faqat ular haqida amaliy ko'nikmalar hosil qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari so'z turkumlarini soddaroq shaklda bir-biridan ajrata oladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'z turkumlari haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonidagi asosiy vazifa ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini o'rganilgan so'z turkumlari (ot, sifat, son, fe'l kabi) bilan yana-da boyitish va shu bugunga qadar og'zaki va yozma nutqda ishlatib kelinayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunib olishga imkon yaratadi, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Ushbu belgilangan vazifalarni to'liq bajarish murakkab jarayon bo'lib, o'qituvchidan ulkan mahorat talab qiladi. Vazifada belgilangan ko'nikmalarining to'liq shakllanishining birdan-bir yo'li o'sha jarayonda o'qituvchi ma'nodosh va zid ma'noli (sinonim, antonim, bular atamasiz shaklda beriladi) so'zlar ustida muntazam shaklda ish borishi kerak bo'ladi. Bu jarayonda o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'nolarda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bu holatda ta'lim berish jarayoni o'quvchilarning kundalik yashash tarziga parallel ravishda olib boriladi. Ya'ni ushbu so'zlar o'quvchilarning radiodan yoki televizordan eshitganlari, turli xildagi kitobdan o'qigan so'zlari asosida olib boriladi.

O'quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish bilan bir vaqtda ularning nutqini o'stirish vazifasi bilan ham amalga oshadi.

Hozirgi kunda jadallik bilan rivojlanayotgan ta'lim tizimi kreativ va innovatsion g'oyaga ega ulkan salohiyatli kadrlarni talab qilmoqda. Ushbu kadrlarga ta'lim berishda zamonaviy smart texnologiyalar, interfaol metodlar va didaktik o'yinlar bilan birgalikda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ham ta'lim ham tarbiya berishda yaqindan xizmat qiladigan, bolajon xalqimizning azaliy qadriyatlarini o'zida aks ettirgan maqollarning o'rni o'rni g'oyatda katta hisoblanadi.

Xorij tajribalari asosida Respublika Ta'lim Markazi tomonidan ishlab chiqilgan milliy dastur boshlang'ich sinf o'quvchilariga quyidagi so'z turkumlari haqida bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishni ko'zda tutadi:

1. Ot so'z turkumi;
2. Fe'l so'z turkumi;
3. Sifat so'z turkumi;
4. Olmosh so'z turkumi.

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"

Yuqorida keltirib o'tilgan mustaqil so'z turkumlari guruhiga mansub bo'lgan so'z turkumlari haqida boshlang'ich sinflarda ularning ma'nolarini farqlay olish, usuliy xususiyatlarini tushunish hamda og'zaki va yozma nutqda to'g'ri, o'rinli qo'llay olish malakalari shakllanadi. Shu bilan birgalikda mustaqil so'z turkumlaridan tashqari yordamchi so'z turkumlari (atamasiz), ya'ni ko'makchi, bog'lovchi, yuklama kabilarni bir-biridan farqlay olish, ularning usuliy xususiyatlarini tushunib izohlay olish hamda nutqda to'g'ri qo'llash kabi bilim, ko'nikma va malakalar shakllantirish o'qituvchi zimmasiga yuklanadi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'z turkumlarini o'rgatishda o'zbek xalq maqollaridan foydalanish jarayonida har bir mustaqil so'z turkumining xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ish tutishi maqsadga muvofiqdir. Quyida jadvallar asosida har bir so'z turkumiga mos bo'lgan o'zbek xalqining durdonalariga to'xtalib o'tamiz.

NATIJALAR

T/r	So'z turkumi nomi	So'z turkumiga mos maqollar
1.	Ot	1. Ochiq til osh (ot) yedirar, Achchiq til tosh(ot) yedirar. 2. Yo'l(ot) quvgan xazinaga yetar So'z(ot) quvgan baloga. 3. Hikmat (ot) bir hovuch oltin. 4. So'z(ot) inson ziynati.
2.	Sifat	1. Toza (sifat) havu tanga davu. *** 2. Toqqa qalin (sifat) qor tushgani Elning qonib suv ichgani. *** 3. Qish qattiq (sifat) kelsa it yili. *** 4. Laylak kelsa yorug' (sifat) yoz Turna kelsa tiniq yoz.
3.	Son	1.Yetti (son) o'lchab, bir kes. *** 2. Oyning o'n beshi (son) qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug'. *** 3. Sanamay ,sakkiz (son)dema. *** 4. Bir yigitga qirq(son) hunar oz.



4.	Fe'l	1. Ishlamagan tishlamaydi. *** 2. Bir kishi quduq qaziydi, Ming kishi suv ichadi. *** 3. Usta lop- lop qiladi, Ishini asbob qiladi. *** 4. Sabrli chidaydi, Sabrsiz yonadi.
----	------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

MUHOKAMA

E'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan muhim jihatlardan yana biri shundaki, biz dars jarayonida so'z turkumlarini o'rgatishda tanlayotgan maqollarimiz mavzu, ya'ni o'sha mustaqil so'z turkumining ayrim xususiyatlariga mos kelishi lozim. Pedagog oldida turgan ilk muammolardan biri ham shunda. Ya'ni o'quvchiga sifat so'z turkumi haqida dastlabki tushuncha berayotgan davrda ot so'z turkumi doirasidagi so'zlarga ko'proq urg'u berilgan maqollardan yiroqda turish maqsadga muvofiq ishdir. Ammo tanlashda ikkilanish bo'layotgan paytda quyidagicha yo'l tutish ijobiy samara beradi:

Yechim

Qaysi bir so'z turkumini o'tish jarayoni bo'lmasin, mazkur jarayonda qo'llayotgan maqollar (hech bo'lmaganda shu so'z turkumiga oid bitta so'z bo'lishi bo'lishi talab etiladi) urg'u ko'proq o'sha so'z turkumiga berish joiz. Bu usulning samarasi yana-da oshirish uchun maqollar bilan turli xildagi rasmlarni integratsiyalash ijobiy yo'ldir.

XULOSA

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga mustaqil so'z turkumlarini o'rgatish jarayonida o'zbek xalq maqollaridan yaqindan foydalanish yuqori darajada samara beradi. So'z turkumlari masalasi, garchi butun dunyoda, jumladan, O'zbekistonda ham ko'plab tadqiqotlarda obyekt qilib olingan bo'lsa-da, hammaga bir xil darajada manzur bo'ladigan holatda o'rganilmagan. So'z turkumlari bilan bog'liq material, ma'lumot lug'atlardan olinmasligi kerak.

Maqollar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shu sababdan ham ular boshlang'ich sinflarda katta o'ringa ega. Shu jumladan, ular o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga, xalqimiz qadriyatlariga muhabbat ruhini uyg'otishga va kuchli bilim olish uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/5410/4889>
2. <https://abiturtest.uz/mavzular/ot-soz-turkumini-organsh-metodikasi/>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/fe'l-soz-turkumini-o-rganish-metodikasi/viewer>
5. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/fe-lni-o-rganish-metodikasi>
5. Abdurahmonova N., O'rinboyeva L. Ona tili / O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma /2-sinflar uchun. - Toshkent: "Ehtremum-press", 2014. - 80 b.
6. Masharipova U., Umarova M., Boynazarova D., Nabiyeva M. Ona tili / O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma / 4-sinflar uchun - Toshkent: "Ehtremum-press", 2017 - 88 h. Tafakkur, 2011. 160 b.
7. Tal'at G'afforova. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - Toshkent:
8. K. Qosimova, S.M atchonov, X. G'ulom ova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi -T.: «NOSHIR», - 2009, 314 b.
9. Абдуллаева Қ. А., Биринчи синфда нутқ ўстириш. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1980. – 156 б.
10. Абдуллаева Қ. А., Раҳмонова С. Она тили дарслари (усулий қўлланма). – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1999. – 146 б.
11. Klaraxon Mavlonova, Shokir Tursun, Iroda Azimova, Sa'dullo Quronov uchinchi sinf ona tili darsligi va o'qish savodxonligi darsligi
12. Зикриллаев Ф. Ўзбек тили морфологияси – Бухоро, 1994. – 195 б.
13. Менглиев Б. Тил ва тараққиёт. – “Маърифат” газетаси, 2013 йил 30 октябрь сони, 8 – 9- б.
14. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1966. – 267б.
15. Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1992. – 168 б.
16. Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек тили. Синтаксис. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2006. – 171 б.
17. Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент.: «Университет», 2007. – 405б.
18. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент.: «Ўзбекистон», 1994.